

TIL-ALOQA VOSITASI

Raimova Dilfuza Abdinabiyevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi

E-mail: nodirbekrahmatov139@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqlolada shuni aytib o‘tishimiz keraki, biz uchun benihoya buyuk qadriyat bo‘lgan, qolaversa, o‘zligimizni anglashda birdan bir vosita hisoblangan ona tilimizning asrab – avaylashimiz lozim. Zero. til mustaqilligi, el mustaqiligidir.

Belgi bo‘lsa, odam yo‘ldan adashmaydi.

Aqli bo‘lsa, kishi so‘zdan adashmaydi.

Kalit so‘zlar: Lug‘at boyligi, leksik, sentaktik muvofiqlik, grammatika, imlo masalalari, didaktika.

“Til kishilar o‘rtasidagi eng muhum aloqa quroli hisoblanadi. U obektiv borliqda ma’lum voqeа- hodisa haqida axborat tashuvchi asosiy vositadir. Axborat uzatishning boshqa usullari ham bor. Masalan yo‘l harakatidagi turli xil: yo‘ldan o‘tish- o‘tmslik va boshqalar belgilar. Ular uchun umumiyl xususiyat o‘zi haqida va shuningdek borliqdagi narsalar haqida ma’lumot berishdir”. “Tilshunoslikda axborat ma’lumotni saqlash va uzatishga xizmat qilgan belgilar tizimini o‘rganuvchi soha semioteka (yun.semiotekos- belgilar haqidagi ta’limot)” hisoblanadi. “Semiotekaning umumiyl qoidalari, xususiyatlari dastlab Amerikalik mantiqshunos Ch.S. Pire va tilshunos F.de Sossyur asarida yoritilgan. Ch.S. Pire “semioteka”, F.de Sossyur “semiologiya termenini qo‘llagan”. Men esa semoitekaning meni qiziqtirgan noverbal vositalar haqida fikr yuritmoqchiman. Eng avvalo, “Noverbal vositalarga nimalar kiradi”, degan savolga javob bersak. Noverbal vositalarga- gavda holati, yuz(mimika), ko‘z ifodasi so‘zlash onganggi va boshqalar kiradi. Biz bu vositalar orqali kishilar haqidagi ba’zi ma’lumotlarni bilib olishimiz mumkin.

Savol: Yolg‘onchini noverbal signallardanqanday aniqlash mumkin?

Yolg‘onchini u qanchalik yolg‘onlarini yashirishga intilmasin, baribir aniqlab olish mumkin: ong ostidan kelayotgan, imo-isholarda yuzaga chiqadigan mikrosignallar va uning so‘zлari orasidagi nomuvofiqlik uni sotib qo‘yadi. Inson yolg‘on gapirib turib, ayni vaqtda umuman xotirjam bo‘la olmaydi. Agar suhbатdoshingiz qo‘lini yuziga yaqinlashtirish bilan bog‘liq imo ishoralarini qo‘llayotgan bo‘lsa, ogoh bo‘lishingiz kerak: uning dilida salbiy kechinma bo‘ladi.

Agar suhbatdoshingiz g‘irt yolg‘on gapiryotgan bo‘lsa, uni sizga imo ishoralar fosh qiladi.

Biz boshqa odamlar haqiqatdan yiroq gap so‘zlayotganini kuzatganimizda yoki o‘zimiz yolg‘on so‘zlayotganimizda og‘zimizni yoki ko‘zlarimizni berkitishga harakat qilamiz. Og‘izni qo‘l bilan “himoya qilish” yolg‘ondan darak beradigan noyob ochiqdan-ochiq ishoralardan biri. Qo‘l og‘izni berkitadi, boshqa barmoq esa yuzga taqalgan bo‘ladi, shu holda u aytilyotgan so‘zlarni ushlashga signal jo‘natamiz. Ba’zi insonlar esa bu holatni niqoblash uchun soxta yo‘taliq qo‘yadi.

Suhbatdoshingiz samimiylar so‘zlayapdimi-yo‘qmi- uning ko‘zlariga tik qarab aniqlab olishingiz mumkin.. Agar suhbatdoshingiz ko‘zlarini yashiriyotgan bo‘lsa, uning bu so‘zlarida yolg‘on yashiringanining ilk belgisi. Suhbatdoshiningiz nigohini tahlil qilishda uning nigohlari qay tomonga olib qochayotganinga e’tibor bering. Yolg‘onchi bir maqsad payida bo‘ladi-siz unga ishonishingizni istaydi.. Shuning uchu, u ko‘zini pastga qaratmaydi, balki u boshqa tarafga olib qochadi. Suhbatdoshingiz ko‘zini pastga qaratganda esa, siz bilan suhbat chog‘ida unga noqulay bo‘layotgan, u tortinchoqlik qiloyatgan bo‘lishi ehtimolga yaqinroq. Agar suhbatdoshingiz ko‘zlarini tepaga qaratyotgan bo‘lsa, u mulohazaga berilgan, o‘ylanib qolganidan darak beradi. Suhbatdoshingiz, siz bilan suhbatlashish chog‘ida haqiqatni so‘zlayotganiga shubhalansangiz, suhbatdoshingizga bir daqiqa maboynida tikilib qarab turing. Agar u nigohingizga chidasa, ko‘zini olib qochishga harakat qilmasa, u sizni aldamayapdi. Agar nigohini olib qochishga harakat qilsa, ko‘zlarini yashirish uchun joy qidirsa, uning hiyla ishlattyotgani ehtimolga yaqin Insonning jilmayishi uning nigohida qanchalik mosligiga e’tibor bering. Juda ko‘p insonlar oldiga nutq so‘zlash biz uchun qiyin. Katta auditoriyada chiqish qilish, ya’ni nutq so‘zlash juda ma’suliyatli ish. Bunday qiyin vazifani bajarishda muvafaqqiyatga erishish uchun nafaqat o‘z nurqingizni yaxshi tayyorlappingiz, balki qanday noverbal vositalardan foydalanishingiz ustida ham o‘ylab olishingiz kerak. Omma oldida chiqish qilishda asosiy qoidani unitmasligingiz lozim – hech qaysi xususiyatingiz birovning g‘ashini keltirmasligi kerak. E’tibor tortish ilmini o‘rganing. Qanday qilib degan savol tug‘iladi. Albatta, noverbal vositalardan foydalangan holda. Ommaviy tadbirlerda quchoq ochayotgan kishiday qo‘llaringizni keng yozishingiz mumkin. Yig‘ilganlarni e’tiborini jamlash uchun qo‘lingizni tepaga ko‘taring va jimlik yuzaga kelguniga qadar tushirmang. Bu imo-ishora juda ta’sirchan va tushunarli bo‘lib, undan nafaqat chiqishning avvalida, balki o‘rtasida ham foydalanish mumkin. Ovoz pardalariga ham e’tibor berib lozim. Ko‘pchilik fikriga ko‘ra, katta auditoriya uchun balabdi ovozda nutq so‘zlash lozim. Jim turgan odam haqida ham ularning xatti- harakati orqali ular bilib olish mumkin ekan. Masalan, o‘scha odamning qadam olishiga qarab. Agar inson raso, bir maromda, tik ildam qadam tashlasa, bu ushbu insonning o‘ziga

ishonishidan darak beradi. Ehtiyyotkor odam ko‘pincha yurish vaqtida dastlab oyog‘ining tovon qismini bosadi. Va asta-sekin oyoq uchiga og‘irligini tashlaydi. Agar inson yurgan vaqtida oyoqlari bilan qattiq tappillatib yursa, bu uning atrofdagilar e’tiborini o‘ziga tortishni xohlayotganligidan darak beradi.

Xulosa qilib aytganda, biz kundalik hayotimizda o‘zimiz anglab yoki anglamagan holda mana shunday belgilardan juda ko‘plab foydalanamiz. Noverbal vositalar orqali biz kishilar haqida har xil ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Bu vositalar bizga axborot olish va uzatishda xizmat qiladi va biz ‘suhbatdoshimizning qanday shaxsligi yoki nimalar demoqchiliginı bemaloj anglab olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. I. A. Karimov “ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent .Ma’naviyat 2008
2. Davlat tili to‘g‘risidagi qonun(yangi tahrir) Toshkent . O‘zbekiston 1995
3. Darsliklar, qo‘llanmalar , ilmiy ishlar va internet ma’lumotlar
4. Z.Xolmonova . Tilshunoslik nazariyasi T:Toshkent 2019
5. D. Mamarasulov Imlo- Ishoralar siri. Yangi asr avlod 2016